

“Maktabgacha yoshdagi bolalarda iste’mol madaniyatini shakllantirishning samaradorligi haqidagi xulosalar

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya va uning uzviy bir qismi . bo‘lgan iste’molchilik madaniyatini shakllantirish keyingi ta’lim bosqichlarida rivojlantirilib, farzandlarimizni kelgusida jamiyatning ongli fuqorosi, iste’mol madaniyati yuksak shaxslar bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

2. Iste’mol yoki iqtisodiy tarbiya muhitini maktabgacha ta’lim tashkilotidan yo‘lga qo‘yilsa, bolalarning shaxsiy rivojlanishidagi intellektual, ma’naviy-ma’rifiy jihatlariga ta’siri samarali bo‘ladi va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olamiga kirib kelishiga zamin yaraladi. Iste’molchilik haqidagi bilimlarsiz bola boshqa odamlarning mehnatini qadrlay olmaydi, o‘ziga havola qilingan ne’matlar qandirini bilmaydi, qat’iyatlilik, vijdonlilik, tejamkorlik, mehnat faoliyatidan qoniqish va zavq olish kabi ijtimoiy sifatlar shakllanishi so‘roq ostida qoladi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual rivojlantirish va bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ularda istemol madaniyatini shakllantirishda o‘tmish an’analari va xorijiy tajribalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish har doimgidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Iqtisodiy ta’lim va tarbiya bolalarni hayotga hamda mehnatga tayyorlashga zamin hozirlaydi va ularni fuqarolik mas’uliyatiga, halol mehnat va axloqiy yetuklikka chorlaydi.

4. Xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janrlarida iste’mol madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan tejamkorlik, molni asrashga aloqador namunalarni topishimiz mumkin. Bolalarga diniy manbalar – Qur’on oyatlari, hadislar ibrati vositasida, shuningdek, o‘zbek mumtoz, ma’rifatchilik, jadid adabiyoti hamda zamonaviy adabiyot namoyondalari ijodidan iste’foda etib iste’mol madaniyati mazmun-mohiyati va amaliy ko‘rinishlaridan bolalarga saboq berish samarali kechadi.

5. Bola tug‘ilgandan boshlab rivojlanadi, ijtimoiylashadi va ulg‘aygan sari tabiiy, maishiy, iste’mol-iqtisodiy munosabatga kirishadi. Bunda oila ta’lim-tarbiyasi, o‘rni va ta’siri muhim hisoblanadi. Birlamchi ijtimoiylashuv oilada amalga oshiriladi, bunga oiladagi kattalar rahbarlik qiladi va bolalarga munosabatlar o‘rnatish namunasi ko‘rsatiladi, uni himoya qilish, fikrlash mantig‘ini tushunish, qiyin muammolarni hal qilish, shu jumladan, iste’mol hayoti, mehr, ishonch, birlik, o‘zaro hurmat kabi hayotiy jarayonlarni anglab yetish, his qilishga yordam beriladi.

6. Nazariy va amaliy adbiyotlarni tahlil qilish natijasida va Abraxam Maslou iste’molchilik ehtiyojlarining ierarxik modeli yordamida maktabgacha yosh davri bolalar ijtimoiylashuvi sharoitida yuzaga keladigan ehtiyojlar orqali iste’molchilik madaniyatini shakllantirish bosqichlari aniqlandi. Unda tajriba ortishi, aqliy bilim rivojlanishi, axloq shakllanishi va ijtimoiylashuv davrida oila va MTT bola shaxsiga individual yondashish va yoshga xos ehtiyojlarini qondirish asosida maktabgacha yoshda iste’mol madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish bosqichlari qadam-baqadam asoslab, yoritib berilgan.

7. “Ilk qadam” davlat dasturida rivojlanish markazlari va tashkil etilgan joy uchun uskunalar va materiallarning namunaviy ro‘yxati keltirilgan. Dasturning o‘ninchi ilovasiga asosan faollik markazlardan samarali foydalanish alohida ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu dasturdan kelib chiqqan holda iste’mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgan markazning tashkil etilishi bolaning ilk iqtisodiy

tushinchalarini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu markazda bolalarning ijodiy qobiliyatlari va tasavvurlarini iste'mol madaniyatni rivojlantirish uchun barcha zarur jihozlar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

8. Bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning asosiy maqsadi – shaxs rivojlanishining asoslarini yaratish, xo'jalik-maishiy va amaliy ishlarga vijdonan munosabatda bo'lish, oilaviy va jamoat mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, zamonaviy iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdir. Bu vazifa oila va jamiyatning iqtisodiy manfaatlari birligi to'g'risida tasavvur hosil qilishni shakllantirish, mehnat faoliyatini oqilona tashkil etish, uy xo'jaligi va pul mablag'larini to'g'ri taqsimlash, kundalik hayotda jamoaviy ruhni tarbiyalash, shaxsiy va ijtimoiy mulkka nisbatan tejimli va iqtisodiy munosabatlarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda individual, kichik guruh, frontal mashg'ulotlari, rolli o'yinlar, sahnalashtirish, mantiqiy-izlanuvchilik mashg'ulotlari, amaliy chizish-bo'yash, teatr tomoshalari, ekskursiyalar, kreativ loyihalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish zarur.

9. Iste'mol madaniyatini shakllantirishda ko'rgazmali ta'lim usuli ham yuqori samarani ta'minlovchi omillardan biridir. Mazkur usulni qo'llashda pedagog ko'rsatish, namoyish etish, plakatlar, maketlar, modellar, predmetlarning asl nusxasi, rang va tovush signallaridan foydalanadi. Ayniqsa, amaliy usullar bilan uyg'unlashtirilishi bolalarning mavzuni aniq tasavvur qilishlari barobarida ularning his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatadi. Tuyg'ular orqali singdirilgan bilim, tushuncha oson o'zlashtiriladi hamda ko'nikma sifatida tez mustahkamlanadi.

10. Maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishining olingan natijalari – iste'mol madaniyatini shakllanganlik samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligi ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatiga dalolat qiladi.

